

**Ko‘zi ojiz abituriyentlarni 2024/2025 o‘quv yili uchun
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga
o‘qishga qabul qilish
TARTIBI**

Ko‘zi ojiz abituriyentlar oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish chog‘larida kirish imtihonlarini ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari uchun belgilangan fanlar majmuasiga mos keluvchi ko‘p balli yoki ularga keltirilgan besh balli baholash tizimi bo‘yicha, an’anaviy uslubda topshiradilar.

Fanlar bo‘yicha kirish imtihonlarini o‘tkazish shakli fanlar ixsosligidan kelib (yozma yoki og‘zaki) shaklda o‘tkaziladi.

Ko‘zi ojiz abituriyentlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish uchun maxsus mas’ul xodim ajratiladi.

JIDU Qabul komissiyasi kirish imtihonlarini o‘tkazish uchun fanlar bo‘yicha komissiyalar tashkil etiladi hamda komissiya tarkibiga ko‘zi ojizlar yoki nogironlar jamiyatining vakili kiritiladi.

Fan bo‘yicha kirish imtihonlarining dasturlari umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumta’lim fanlari dasturlariga to‘la muvofiq holda tuziladi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta’lim muassasalari qabul komissiyalari ko‘zi ojiz abituriyentlar uchun kirish imtihonlari fanlari bo‘yicha maxsus tuzilgan jadvalga binoan maslahatlar tashkil etiladi.

Ko‘rsatilgan abituriyentlar toifasi uchun kirish imtihonlari Qabul komissiyasi tomonidan 26-iyulga qadar o‘tkaziladi.

Mazkur toifaga kiradigan abituriyentlar va kirish imtihonlari natijalari haqidagi ma’lumotlar 27-iyulga qadar Davlat komissiyasiga va Bilimni baholash agentligiga topshiriladi.

Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan (ko‘p balli tizimda baholanganda—maksimal ballning 55 foizidan yuqori ball olgan, besh balli baholash tizimida baholanganda — “3”, “4” yoki “5” baho olgan) abituriyentlar Davlat komissiyasi qarori asosida tanlovsiz, alohida ajratilgan o‘rinlarga davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.